

OMMAVIY KOMMUNIKATSIYALAR TARIXIDA POLEMIKANING O'RNI

E'tiqodxon ATAKULOVA

katta o'qituvchi

O'zbekiston jurnalistika va
ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Toshkent, Ўзбекистон

etaqulova@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada ommaviy kommunikatsiya tarixida polemikaning ko'rinishlari, o'rni borasida so'z boradi.

Таянч so'zlar: bahs-munozara, ommaviy axborot vositalari, kontent, notiq, polemika, plyuralizm, muhokama, matbuot.

РОЛЬ ПОЛЕМИКИ В ИСТОРИИ МАССОВЫХ КОММУНИКАЦИЙ

Эътикодхон АТАКУЛОВА

старший преподаватель

Университет журналистики и массовых
коммуникаций Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

etaqulova@gmail.com

Аннотация

В настоящей статье речь идет о видах и роли полемики в истории массовых коммуникаций.

Ключевые слова: диспут, средства массовой информации, контент, оратор, полемика, плюрализм, дискуссия, печать.

Haqiqat bahslarda tug'iladi, degan tushunchani ongli faoliyatimizda ko'p qo'llaymiz. Necha asrlardan beri tildan-tilga o'tib kelayotgan bu tushuncha bahs nazariyasi uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tganligidan dalolat beradi. Qadriyatimiz, tariximiz, adabiyotimizda mavjud bahslashish tushunchasi hali yozuv paydo bo'lmasdan oldin og'zaki muloqotda qadimgi Yunonistonda paydo bo'lgan va notiqning iste'dodi, mahorat ko'rinishi sifatida san'at darajasida ulug'langan. Bahslashish san'ati ommaviy muloqot madaniyatining shakllanishga xizmat qilgan va san'atning eng qadimiy turi hisoblangan notqlik san'atiga borib taqaladi.

Qadimgi Yunonistonda notiqalar o'z nutqlarida ma'nodorlik va uzviylikka, dalil va isbotlar bilan yoritib berishga alohida e'tibor qaratgan [1]. Jamiyatdagi u yoki bu nizoli vaziyatlarga yechim topishda, notiqalarning nutqi va undagi polemika ahamiyatli bo'lgan. Polemika muloqotning eng qadimiy, an'anaviy va shuning uchun ham eng konkretlashgan shakllaridan biri bo'lib, mazkur hodisaning o'zi jurnalistika paydo bo'lishidan, tahririyat jamoalari shakllanishidan ancha oldin dunyoqarashimizga, turmush tarzimizga kirib kelgan: "Insoniyat tarixi ishlab chiqarish, mifologiya, din, ateizm, ilm-fan yutuqlarisiz, ijtimoiy qarama-qarshiliklar, siyosiy qarashlar kurashisiz rivojlana olmas edi" [2].

Qadimiy polemika san'ati bahs nazariyasining rivojlanishida katta o'rin egallaydi. Dunyo ilm-fanida yangi g'oya, kashfiyotlar, ilmiy nazariy asoslarning qaror topishida, turli sohalarning rivojlanishida, shu sohadagi qarama-qarshi fikrlar, tortishuvlar muhim rol o'ynaydi. Bahs fikrlarni charhlaydi, dunyoqarashni oshiradi. Ayniqsa, u ma'naviy-axloqiy me'yorlar doirasida bo'lsa, ma'rifat ziyosiga aylanadi [3]. Bu tushunchalarga alohida to'xtalishdan oldin polemika istilohiga e'tibor qaratamiz.

Ta'kidlash joizki, polemika tushunchasi, uning mohiyati, xususiyatlariga ilmiy adabiyotlarda turlicha ta'riflar keltiriladi:

Polemika – yunoncha so'z bo'lib, yozma, ilmiy bahs, janjal [4] deganidir. "Nizo" ma'nosini anglatuvchi bu so'z fransuz tilidan olingan bo'lib, bu yerda "polémique" so'zi yunoncha "polemikos" ("jangovar") degan ma'noni anglatadi. "Polemos" – "urush" so'zidan hosil bo'lgan [5].

Rus tilining izohli lug'atida esa, polemika – grekcha (polemikos) co'zidan olingan bo'lib "jangovar, dushman, hujum" degan ma'nolarga ega.

Shuningdek, polemika – bu har qanday muammoga, savollarga oydinlik kiritish muhokamasi paytidagi bahs [6], ma'lum bir fikrga qarshi yozma yoki og'zaki hujum, fikrni himoya qilish [7], o'z nuqtai nazarining to'g'riligini va raqibning nohaqligini isbotlashga qaratilgan bahs [8], intellektual duel shaklida bo'lib o'tadigan muloqot turi, unda ishtirokchilarning har biri raqib bayonotlarini

tanqid qilish va rad etish bilan bir qatorda o'z pozitsiyasini asoslash va bahslashishidir [9]. Tadqiqotchi, A.M.Shesterina polemika – o'z nuqtai nazarining to'g'riligi va opponentning nohaqligini isbotlashga qaratilgan bahs" deb ta'rif beradi.

Adabiy, badiiy, ilmiy, siyosiy masala yoki hodisa, ijtimoiy masala yuzasidan munozara olib borish, biror- bir umumiy manfaat yuzasidan matbuotda qo'zg'atiladigan janjallar, har kim o'z pozitsiyasini to'g'ri ekanligini isbotlashga harakat qiladigan bahsning bir turidir [10].

Rus mantiqshunosi L.G.Pavlova esa polemikaga quyidagicha ta'rif beradi. "Polemika – bu ishontirish ilmidir. U fikrni ishonchli va shubhasiz dalillar, ayniqsa ilmiy dalillar bilan mustahkamlashga o'rgatadi" [11]. Boshqa tadqiqotchi A.A.Ivin olimaning fikrlarini to'ldirib, bunday hodisalarga qiziqish "jamiyatda majburlash, zo'ravonlik, tahdid va boshqalar orqali emas, balki nutq orqali ishontirish zarurati bilan paydo bo'ladi"[12] deb ta'kidlaydi.

Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinadiki, polemika tushunchasining o'zida uch xil yondashuv mavjud. Ya'ni:

Birinchisi, polemika bu – janjal, nizo, urush, hujum kabi harakat, faoliyatni ifoda etuvchi tushuncha. *Ikkinchisi*, bahs, fikrni himoya qilish singari ma'nolarni ifoda etuvchi muloqot turi. *Uchinchisi* esa ishontirish, qiziqtirish usulidir. Uch xil yondashuvni umumlashtiradigan jihat, biz tasniflagan har bir turda tomonlarning mavjudligidir. Agar tomonlar bo'lmasa, ular o'rtasida nizo ham, muloqot ham, ishonch ham bo'lmaydi.

Polemika har qanday masala bo'yicha bo'layotgan bahsda, tomonlarning pozitsiyalarini haqiqat yoki yolg'onligini asosli ravishda aniqlaydigan nutqiy vosita sifatida dastlab munozara san'ati va ilmiy bahs ko'rinishida dialektika, falsafa va mantiq ilmining o'rganish obyekti sifatida antik davrdanoq o'rganila boshlangan.

Miloddan avvalgi 480–410-yillarda yashab ijod qilgan, qadimgi yunon faylasufi, mohir notiq Protogor ham shogirdlariga falsafa, notqlik va bahs san'atidan dars bergan va "Bahs ilmi" nomli asar yaratgan. Biroq uning asarlari

bizgacha yetib kelmagan. Protagor va uning shogirdi Evatl o'rtasidagi bahs jahon tarixi sahifalarida "Evatl safsatasi" nomi bilan saqlanib qolgan [13].

1281–1349-yilda ingliz faylasufi Uilyam Okkam «Okkam ustarasi» deb nomlangan yangi uslubiy qoidalarni joriy qilgan bo'lib, u ilmiy bahslarda oddiylilik, soddalik tamoyillariga rioya etishni afzal hisoblagan. Uilyam faoliyat yuritgan Oksford universitetida tez-tez ilmiy munozaralar, mubohasa himoyalar o'tkazilgan. Talaba o'z fikrini qat'iy himoya qilib, ularga munosib javob berishi polemikaning asosiy sharti hisoblangan. Bunday bahslar odatda keskin bo'lib ko'pincha mushtlashuv ba'zida qatl bilan tugagan [13]. Buning yorqin misoli italiyalik faylasuf Filippo Jordano Bruno (1548–1600) polemikada doim g'olib bo'lgan. Brunoni katolik cherkovi sudi o'z qarashlaridan voz kechishga majburlash uchun barcha qiynoqlarni ishga soladi. Lekin Bruno o'z e'tiqodiga sodiq qoladi. «O'tda yonmoqlik — inkor etmoqlik emas!». Bu so'zlar gulxanda yonayotgan Brunonning so'nggi nidosi edi [13]. "Fikrlayapmanmi – demak mavjudman!"- degan qarashni ilgari surgan Rene Dekart (1596–1650) ham tabiatan qiziqqon bo'lsa-da, bahs va tortishuvlar chog'ida o'zini munosib tuta bilgan.

Davlatchilik asoslari paydo bo'lganidan boshlab ijtimoiy qatlam va hokimiyat, jamiyat va din o'rtasida doimiy tortishuvlar bo'lgan va bu hali ham davom etmoqda. Shuningdek, zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto" ta'limotida ham yolg'on va rost o'rtasidagi doimiy bahs davom etib, yaxshi ish, yaxshi so'z va yaxshi xulqning tantanasi g'olib chiqqanligi e'tirof etiladi [14]. XI asrda turkiy adabiyotning nodir namunasi sanalgan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida to'rt obrazning (davlat, adolat, vazir, aql) namoyon bo'lishini savol-javob, bahs-munozara va pand-nasihat vositasida ochib beradi. Muallif polemik masalalar yuzasidan ham axloq-odob, ilm, insoniylik va adolat doirasida fikr yuritadi.

Polemika san'at darajasida qadimgi dunyoda muayyan ijtimoiy-tarixiy sharoit taqozosi ostida shakllangan bo'lib, u "eristika" nomi bilan ataladigan maxsus

ta'limot uchun asos bo'lib xizmat qildi [15]. Falsafiy ensiklopedik lug'atda eristika – bu yunon tili (*eristikos*) so'zidan olingan bo'lib, "bahslashish" degan ma'noni bildiradi.

Tadqiqotchi L.N.Sedovanning "Основы полемического мастерства" o'quv qo'llanmasida, eristika bu – bahslashish va polemika san'ati deb ta'rif berilgan. Ko'pgina ilmiy manbalarda bu so'z sofistika va dialektikaning sinonimi sifatida ham keltirilganligi aytib o'tilgan.

Qadimgi yunon olimlari esa dialektik suhbatlar va sofistika bahslar nizoning turlari sifatida qayd etganlar. Yana bir rus tadqiqotchisi A.A.Gardarikining "Falsafa: ensiklopedik lug'atida" esa eristika amaliy san'atning bir turi sifatida keyinchalik dialektika va sofistika aylanganligi haqida ma'lumotlar bor. Eristika Yunonistonda keng tarqalgan va nizo orqali haqiqatni topish vositasi sifatida tushunilgan. Tadqiqotchi Sevara To'rabova eristikaga muloqot jarayonining murakkab usullaridan biri bo'lgan bahs-munozaraning turli tavsiflarini (mantiqiy, pedagogik, samiotik, psixologik) o'rganishga qaratilgan tadqiqot sifatida qaralayotganini aytib o'tgan [15]. XIX asr nemis faylasufi Artur Shopenhauer o'zining "Bahslarda g'alaba qozonish san'ati" nomli kitobida eristika haqida yozar ekan, bahslarni qanday g'alaba bilan yakunlash bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqadi. Aristotel ham eristika bu – nohaq yo'llar bilan bahslashish san'ati degan ta'rifni ilgari surgan.

Dialektika – bu o'rta yunon tilidan olingan bo'lib (*διαλεκτική*) bahslashish, mulohaza yuritish san'atidir. Falsafa tarixiga oid qator manbalarda dialektik bahsni birinchi bo'lib Eleylik Zenon va abderlik Protagor tatbiq etganligi aytilgan. Zenonning fikricha, dialektikaning vazifasi fikrlarni tahlil qilish va undagi ziddiyatlarni aniqlashdan iborat [15]. Dastlab dialektika bu bilim sohasi bo'lib, uning maqsadi suhbat, bahs san'atini o'rgatishga qaratilgan. Biroq keyinchalik bu atama tabiat, jamiyat va tafakkur rivojlanishining eng umumiy qonuniyatlarini o'rganadigan fan sifatida shakllandi [16].

Falsafa tarixi mutafakkirlarning ta'riflashicha, dialektikaga abadiy shakllanish va borliqning o'zgaruvchanligi haqidagi Geraklit ta'limoti, Suqrotning haqiqatni anglash deb qabul qilinadigan dialog san'ati, Aflotunning narsalarning o'ta sezgir (ideal) mohiyatini ajratish va bog'lash usuli, Aristotel ta'limotining umumiy qoidalari, Nikolay Kuzanskiy, Jordano Brunoning qarama-qarshiliklarni birlashtirish ta'limoti, Kantning inson ongini saroblardan tozalash usulini, (*bu butun va mutlaq bilimga intilib, muqarrar ravishda qarama-qarshiliklarga aralashib ketadi*) Gegelning qarama-qarshiliklar mavjudligi, ruh va tan rivojlanishi ichki omillarini bilishning universal usulini, voqelikni bilish va uning inqilobiy o'zgarishi uchun asos sifatida qabul qilingan ta'limot va usullarini misol sifatida keltirish mumkin [17]. Bu borada Platonning dialektika haqidagi qarashlari alohida o'ringa ega. Uning ta'rificha, dialektika – bu "og'zaki suhbat, savol-javob, isbotlash, hissiy bilishdan xalos bo'lish, tafakkur orqali g'oyalar dunyosini chuqurroq anglash vositasidir. U dialektikani savol-javob qilishni bilishda deb ta'riflaydi. "Savol berishni bilgan va unga javob bera oladigan kimsani, deydi u, biz dialektik deb ataymiz".

Dialektika o'rta asrlar Sharq falsafasida ham yetakchilik qilgan. Abu Nasr ibn Muhammad Forobiyning yozishicha, dialektika atamasi qadimgi yunon faylasuflari Suqrot va Plutarx tomonidan qo'llanilgan bo'lib, bahs-munozara yuritish orqali bahslashuvchining fikridagi ziddiyatlarni fosh etish va haqiqatga erishishdir. Unga ko'ra, inson haqiqatga faqat dialektika orqali erishishi mumkin [17].

Forobiyning fikriga ko'ra, bahsda dialektika g'alaba qozonishi uchun, insonni aniq bilimlarga asoslangan nazariy fan bilan shug'ullanishga tayyorlash va kundalik hayotda to'g'ri qarorlar qabul qilish uchun "mashq san'ati"ni bilishi zarur. U dialektik bahslarning asosan ikki maqsadi borligini ta'kidlaydi. Birinchi maqsad rad etish bo'lsa, ikkinchisi – isbotlashdir. Ikkinchi maqsad faqat savol-javobdangina iborat bo'lmay, bahs-munozaraning strategiyasi va taktikasini ham belgilab, muxolif ustidan g'alaba qozonishga qaratiladi [18].

Sofizm bu – intellektual firibgarlik bo‘lib, unda be‘manilik oldindan ayon bo‘lgan mulohazani asoslashga qaratilgan faoliyatdir [13]. Bu qarash tarafdorlarining maqsadi so‘z san‘atidan bahs orqali haqiqatga erishish emas, balki rasmiy va huquqiy g‘alabaga erishish yo‘lida foydalanish va qanday mavzu bo‘yicha bo‘lmasin, har qanday bahsda g‘alaba qozonish mumkinligiga atrofdagilarni ishontirish maqsad qilib olinadi. Ularning fikricha, har qanday dalilga o‘zining qarshi dalili bo‘lganligi sababli kurash olib borish mumkin. Biroq sofistlarda bahs haqiqat uchun emas, g‘alaba uchun xizmat qila boshladi. Ular bahs jarayonida hatto zaif dalillarni ham kuchli qilib ko‘rsata olish taktikasini ishlab chiqishdi. Biroq aynan sofistlar tarafdorlari bahslarda birinchilardan bo‘lib dalil-isbotlardan foydalana boshladilar bu bilan qadimgi yunon mutafakkirlarini dalillash nazariyasini ishlab chiqishga majbur qildilar [13].

Bahs-munozaralar negizidagi ma‘naviy o‘zgarish Suqrotning nomi bilan bog‘liq bo‘lib, u haqiqatni aniqlashga xizmat qiladigan polemikani eristikaga qarshi qo‘ydi. Suqrot dialektika yordamida haqiqat to‘g‘risidagi qarama-qarshi nuqtai nazarlarni taqqoslash vositasi sifatidagi falsafiy va intellektul shaklni berdi. U polemika orqali haqiqatga boradigan eng to‘g‘ri yo‘l muholif mulohazalarida ziddiyatlarni aniqlash, deb hisoblaydi. Suqrot, Platon va sofistlardan tashqari, Qadimgi Gretsiyada bahs-munozaralarni tadqiq etishga Aristotel ham alohida e‘tibor qaratgan. Uning "Organon" nomli to‘plami tarkibiga kiritilgan "Topika" va "Sofistik raddiya haqida" nomli asarlari bahs-munozara nazariyasi va amaliyoti tamoyillarini tizimli tahlil qilib berishdagi ilk nazariy manbalardan hisoblanadi.

Aristotelning "Mavzu" nomli risolasining sakkizinchi bobi butunlay dialektik munozaralarga bag‘ishlangan bo‘lib, unda eristik va sofistik bahsni tanqid ostiga oladi. Uning fikricha, har qanday masalani bahsda tadqiq qilishning umumiy usullari, umumiy qoidalar, bahslashayotgan tomonlar tayanishi kerak bo‘lgan mavzular mavjud [14].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bahs degan tushuncha hayotimizga bugun kirib kelgani yo‘q. Bahslashish nazariyasi o‘zining tarixiy taraqqiyot yo‘liga

ega. Dastlab notiqlik san'atida, sud ishlarida, ijtimoiy muammolarni hal qilish maqsadida turli muhokamalarda umuman qarama-qarshi ikki fikr mavjud joyda bahs kelib chiqishi borasida qarashlar mavjud. Bahslar jamiyatda turli fikrli doiralarning ko'payishiga sabab bo'ladi. Fikrni charxlaydi, dunyoqarashni oshiradi, yangi fikrlar tug'ilishiga xizmat qiladi. Karl Popper keltirganidek, "munozaraning maqsadi g'alaba emas, balki taraqqiyot bo'lishi kerak". Shu o'rinda uni matbuot sahifalariga ko'chirsak, demak polemika matbuotning xabardorlik funksiyasidan tashqari fikr qo'zg'ash, muayyan masala bo'yicha omma fikrini shakllantirish, plyuralizmni rivojlantirish va ko'tarilgan bahsli masala bo'yicha yechim topish vazifasini ham bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ismoilov M.I., Toshmo'hammedova L.I.. Notiqlik san'ati. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Noshir, 2019. – 360 b.
2. Абдеев Р.Ф. Философия информационной цивилизации / Р.Ф. Абдеев. – Москва: ВЛАДОС, 1994. – 336 с.
3. Nazira Qurbon. Tahliliy jurnalistika: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Bayoz, 2019. –110 b.
4. Даль В.И. Толковый словарь живого великорусского языка: избр. ст. / В.И. Даль; совмещ. ред. изд. В.И. Даля и И.А. Бодуэна де Куртенэ. – Москва: Олма-Пресс: Крас. пролетарий, 2004. – 700 с.
5. Крылов Г.А. Этимологический словарь русского языка. – СПб.: ООО Полиграфуслуги, 2005. – 432 с.
6. http://ozhegov.info/slovar/?q=%D0%9F*&pg=149&ind=N
(Murojaat sanasi: 24.04.2023).
7. http://Users/yodgorov044gmail.com/Desktop/polemika/Polemik%20ta'rifi%20va%20ma'nosi%20_%20Colins%20inglizcha%20lug'at.html
(Murojaat sanasi: 23.04.2023).

8. Шестирина А.М. Полемический текст в современной прессе: автореферат дисс ... док. филол. наук. – Воронеж, 2004. – 44 с.
9. Родос В.Б. Теория и практика полемики. – Томск: Томский государственный университет им. В.В. Куйбышева, 1989.
10. Энциклопедический словарь. Москва: Гардарики, 2004.
11. Павлова Л.Г. Спор, дискуссия, полемика. – Москва: Просвещение, 1991.
12. Абрамов С. Война и журнал: О страницах «Нового мира» сорокалетней давности // Новый мир, 1985. – № 1. – С. 225.
13. Haqiqat manzaralari. 100 mumtoz faylasuf / Takdirlar, hikmatlar, aforizmlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. - B.226.
14. Xomidov H. «Avesto» fayzlari. – Toshkent: A. Kodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 2001.
15. Turabova S. Ilmiy bahs (debat, diskussiya, polemika, disput)ning mantiqiy-epistemik tahlili. – Tyermiz: Surxon nashr, 2020.
16. Михайлов Ф.Т. Янги фалсафий энциклопедия: 4 жилдлик. 2-нашр. – Москва, 2010.
17. Аль-Фараби. Диалектика Историко-философские трактаты. – Алма-Ата: Наука, 1985. – 405 с.
18. Fayzixo‘jayeva D. Abu Nasr al-Farobiy va Abu Ali Ibn Sino mantiqiy isbotlash haqida. – Toshkent: Nishon-Noshir, 2013.
19. Поварнин С.И. Спор. О теории и практике спора /С.И.Поварнин. – Москва: Технологическая школа бизнеса, 2008.